XALQ DEPUTATLARI ISHTIXON TUMANİ KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 29 - dekabr VI-114-217-7-95-K/23 Ishtixon tuman hokimligi

Samarqand viloyati Ishtixon tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 99-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasi “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga, xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2023-yil 27-dekabrdagi “Samarqand viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-94-126-7-0-K/23-sonli qaroriga, tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Q.Nuriddinovning 2023-yil 21-dekabrdagi 143/01-37-sonli bildirgisiga, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi v.b boshlig‘i M.Arzikulovning 2023-yil 14-dekabrdagi 01-02/39-310-sonli xatiga, tuman adliya bo‘limining 2023-yil 29-dekabrdagi 5/30-23-sonli xulosasiga asosan hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, 114-sessiyasi,

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2023-yil 27-dekabrdagi “Samarqand viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-94-126-7-0-K/23-sonli qaroriga asosan:

- Ishtixon tumani budjetiga Samarqand viloyati budjetidan ajratilgan tartibga soluvchi budjetlararo transfert 114 772 881,0 ming so‘m, shundan mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha transfertlar 46 677 000,0 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi;

- tuman budjetining aylanma kassa mablag‘i 1 444 000,0 ming so‘m miqdorda belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2024-yil uchun tuman budjeti daromadlar prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman budjetidan 2024-yilgi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. 2024-yil uchun tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2 058 242,0 ming

so‘m miqdorida belgilansin.

5. Tuman hokimligi:

- tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

- budjet daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta’minlash;

- budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

- tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

- budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin;

- soliq bazasini kengaytirish, iqtisodiy salohiyatni oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash, budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatish;

- tegishli ravishda hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarning budjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalar bo‘yicha hisobotlarini xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritib borilishini ta’minlasin.

6. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Q.Nuriddinov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi v.b (M.Arzikulov), tuman soliq inspeksiyasi (Z.Djozilov) va mas’ul muassasa, tashkilotlar bilan birgalikda:

- tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

- mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

- budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

- budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

- tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

- budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

7. Tuman soliq inspeksiyasi (Z.Djozilov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

- soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

- yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk

soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tqazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

- aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tqazish;

- Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

- xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

8. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (M.Tursunov), “Ishtixon ovozi” gazetasi muharriri (M.Rabbimova) mazkur qaror “Ishtixon ovozi” gazetasida rasmiy e’lon qilinishi hamda tuman hokimligini veb-saytiga joylashtirilishi tavsiya etilsin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Z.Egamov) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Q.Nuriddinov)lar zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **K.E.Yavkochdiyev**

Xalq deputatlari Ishtixon tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-114-217-7-95-K/23-son qaroriga
1-ilova

Ishtixon tumani mahalliy budjeti daromadlarining 2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/r	Daromad turlari	Jami
JAMI		**116 427 000,0**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	31 685 000,0
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	3 836 000,0
3	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	15 400 000,0
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	25 980 000,0
5	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 660 000,0
6	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	5 120 000,0
7	Noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	400 000,0
8	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 790 000,0
9	Yuridik shaxslar yer solig‘i	11 846 000,0
10	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	8 190 000,0
11	Aylanmadan olinadigan soliq	8 650 000,0
12	Yig‘imlar	800 000,0
13	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	70 000,0

Xalq deputatlari Ishtixon tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-114-217-7-95-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun Ishtixon tumani budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan ajratmalarining cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Nomlanishi	2024-yil
1	Maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limi	31 644 814,0
2	Tibbiyot muassasalari	107 140 253,0
3	Madaniyat tashkilotlari	5 287 472,0
4	Yoshlar siyosati va sport bo‘limi	12 827 402,0
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	5 553 792,0
6	Hokimiyat	56 190 702,0
7	Soliq inspeksiyasi	5 695 570,0
8	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	5 255 000,0
9	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	1 604 876,0
	Jami xarajatlar	**231 199 881,0**

Xalq deputatlari Ishtixon tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-114-217-7-95-K/23-son qaroriga
3-ilova

2024-yil uchun shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yori

T/R	Tuman nomi	Yuridik shaxslarning mol-mulk solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Yig‘imlar (bojxona yig‘imlaridan tashqari)	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	Korxonalar aylanmasidan soliq	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari
1	Ishtixon tumani	100	100	50	100	50	70	100	100